**XALQ DEPUTATLARI BULOQBOSHI TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 27-dekabr VII-3-022-1-20-K/24 Buloqboshi tumani

**Buloqboshi tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlariAndijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04-15-/1905-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Buloqboshi tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **109,8 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **109,8 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Buloqboshi tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **480,0mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Buloqboshi tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1,5 mlrd. so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga

kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 $m^2$ uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Jalilov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Usmonov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Isaqov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (M.Toshtemirov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Jalilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



BO‘TAXONOV
FURQATBEK
TOJIMAXAMMATOVICH

Xalq deputatlari Buloqboshi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-022-1-20-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**2025-yil uchun Buloqboshi tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognozi**

Ming so‘mda

| № | Ko‘rsatkichlar | Summa |
|---|---|---|
| 1 | Aylanmadan olinadigan soliq | 7,382,000 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 40,026,600 |
| 3 | Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 1,084,000 |
| 4 | Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i | *3,270,750* |
| 5 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 3,697,000 |
| 6 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 9,691,000 |
| 7 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 6,385,000 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 11,484,000 |
| 9 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 24,533,000 |
| 10 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 2,132,000 |
| 11 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 159,000 |
| | **Hamma daromadlar** | **109,844,350** |

Xalq deputatlari Buloqboshi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-022-1-20-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**2025-yil uchun Buloqboshi tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

Ming so‘mda

| № | Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi | Cheklangan miqdor |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, jami** | | **109,844,350** |
| 1 | Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi | *31,681,681* |
| | shundan: | |
| | *"Mening maktabim"* | *2,106,545* |
| 2 | Madaniyat bo‘limi | *4,090,194* |
| 3 | Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi | *4,395,362* |
| 4 | Sport bo‘limi | *6,306,319* |
| 5 | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi | *1,860,309* |
| 6 | Qishloq xo‘jaligi bo‘limi | *1,508,354* |
| 7 | Irrigatsiya bo‘limi | *1,159,674* |
| 8 | Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari | *2,220,238* |
| 9 | Hokimiyat | *38,717,231* |
| | shundan: | |
| | *Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi* | *27,034,000* |
| | *"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari* | *1,545,000* |
| | *Zahira jamg‘armasi* | *1,508,459* |
| 10 | Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi) | *853,264* |
| | shundan: | |
| | *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari* | *115,086* |
| | *Axborot-kutubxona markazlari* | *738,178* |
| 11 | Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi) | 17,051,724 |

Xalq deputatlari Buloqboshi tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-022-1-20-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**2025-yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori**

| № | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadsolig‘i * | Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Foyda solig‘i | Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) uchun aksiz solig‘i | Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i* | Yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari* | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari* | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 60% | 100% | 0% | 0% | 35% | 100% | 100% | 100% |

| Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar | Aylanmadan soliq | Davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar | Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari | Davlat boji ** | Jarima** | Yig‘imlar** | Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar | Boshqa (3450603 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 371030 doromad kodlari bo‘yicha) tushumlar* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 100% | 0% | 100% | 50% | 50% | 0% | 0% | 0% | 100% | 100% |

*Izoh: * Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno*

*** Qonunchilik hujjatlarida belgilangan ayrim davlat boji (3422103 daromad kodi bo‘yicha), jarimalar (3430103 daromad kodi bo‘yicha) va yig‘imlar (3422203 daromad kodi bo‘yicha)ning ayrim turlari tuman (shahar) mahalliy byudjetlariga ajratma qilinishi mumkin*

Xalq deputatlari Buloqboshi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-022-1-20-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**2025-yil uchun Buloqboshi tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan koeffitsientlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari**

| № | Mahalla fuqarolari yig‘inlari nomi | Koeffitsent miqdori | 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)* |
|---|---|---|---|
| 1 | Raish MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 2 | Baynalminal MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 3 | Yuksalish MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 4 | Shoxguzar MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 5 | Shirmonbuloq MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 6 | Sharq yulduzi MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 7 | Chaqar MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 8 | Xontepa MFY | 1,1 | 42 592 000 |
| 9 | Balandchek MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 10 | Farovon MFY | 1,1 | 42 592 000 |
| 11 | Uchko‘cha MFY | 1 | 38 720 000 |
| 12 | Toshkechik MFY | 1 | 38 720 000 |
| 13 | Tinchlik MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 14 | Soxibkor MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 15 | Soybo‘yi MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 16 | Sarbontepa MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 17 | Sanoat MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 18 | Uchtepa MFY | 1 | 38 720 000 |
| 19 | Rivoj MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 20 | Barlos MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 21 | Boymaxalla MFY | 1 | 38 720 000 |
| 22 | Navoiy MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 23 | M.Ismoiliy MFY | 1,1 | 42 592 000 |
| 24 | Ko‘prikboshi MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 25 | Qumguzar MFY | 1 | 38 720 000 |
| 26 | Qumariq MFY | 0,7 | 27 104 000 |
| 27 | Bozorboshi MFY | 1 | 38 720 000 |
| 28 | Qashqar MFY | 1 | 38 720 000 |
| 29 | Qaqir MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 30 | Istiqlol MFY | 0,9 | 34 848 000 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 31 | Zarg‘oldoq MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 32 | Yorboshi MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 33 | Do‘lana MFY | 0,9 | 34 848 000 |
| 34 | Guliston MFY | 1 | 38 720 000 |
| 35 | Buyuk turon MFY | 1 | 38 720 000 |
| 36 | Neftchilar MFY | 0,8 | 30 976 000 |
| 37 | Nayman MFY | 0,9 | 34 848 000 |

**O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qarori bilan Buloqboshi tumanida yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘ining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 38 720 000,0 so‘m miqdorida belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffitsientga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.*

Xalq deputatlari Buloqboshi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-022-1-20-K/24 -son qaroriga
5-ilova

**2025-yil uchun Buloqboshi tumani bo‘yicha jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan koeffitsientlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari**

| № | Mahalla fuqarolari yig‘inlari nomi | Koeffitsent miqdori | 1 kv. M uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)* |
|---|---|---|---|
| 1 | Raish MFY | 0,8 | 277,1 |
| 2 | Baynalminal MFY | 0,9 | 311,8 |
| 3 | Yuksalish MFY | 0,9 | 311,8 |
| 4 | Shoxguzar MFY | 0,9 | 311,8 |
| 5 | Shirmonbuloq MFY | 0,9 | 311,8 |
| 6 | Sharq yulduzi MFY | 0,9 | 311,8 |
| 7 | Chaqar MFY | 0,9 | 311,8 |
| 8 | Xontepa MFY | 1,1 | 381,0 |
| 9 | Balandchek MFY | 0,8 | 277,1 |
| 10 | Farovon MFY | 1,1 | 381,0 |
| 11 | Uchko‘cha MFY | 1 | 346,4 |
| 12 | Toshkechik MFY | 1 | 346,4 |
| 13 | Tinchlik MFY | 0,9 | 311,8 |
| 14 | Soxibkor MFY | 0,9 | 311,8 |
| 15 | Soybo‘yi MFY | 0,9 | 311,8 |
| 16 | Sarbontepa MFY | 0,9 | 311,8 |
| 17 | Sanoat MFY | 0,8 | 277,1 |
| 18 | Uchtepa MFY | 1 | 346,4 |
| 19 | Rivoj MFY | 0,8 | 277,1 |
| 20 | Barlos MFY | 0,8 | 277,1 |
| 21 | Boymaxalla MFY | 1 | 346,4 |
| 22 | Navoiy MFY | 0,9 | 311,8 |
| 23 | M.Ismoiliy MFY | 1,1 | 381,0 |
| 24 | Ko‘prikboshi MFY | 0,9 | 311,8 |
| 25 | Qumguzar MFY | 1 | 346,4 |
| 26 | Qumariq MFY | 0,7 | 242,5 |
| 27 | Bozorboshi MFY | 1 | 346,4 |
| 28 | Qashqar MFY | 1 | 346,4 |
| 29 | Qaqir MFY | 0,8 | 277,1 |
| 30 | Istiklol MFY | 0,9 | 311,8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 31 | Zarg‘oldoq MFY | 0,9 | 311,8 |
| 32 | Yorboshi MFY | 0,8 | 277,1 |
| 33 | Do‘lana MFY | 0,9 | 311,8 |
| 34 | Guliston MFY | 1 | 346,4 |
| 35 | Buyuk turon MFY | 1 | 346,4 |
| 36 | Neftchilar MFY | 0,8 | 277,1 |
| 37 | Nayman MFY | 0,9 | 311,8 |

**O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qarori bilan Buloqboshi tumanida yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘ining bazaviy stavkasi 1 kv.m uchun 346,4 so‘m miqdori belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffitsientga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.*